Ключевые слова: государственная гражданская служба, имидж государственного служащего, общественное доверие, привлекательность государственной службы, компетенция, кадровая политика, оплата труда, цифровое управление, искусственный интеллект, организационная культура, средства массовой информации.

KIRISH

O‘zbekistonda davlat xizmati tizimi so‘nggi yillarda izchil islohotlar va modernizatsiya jarayonlari natijasida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Davlat xizmati tobora professionallik, ochiqlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan faoliyat sohasi sifatida shakllanib bormoqda. Mazkur o‘zgarishlar davlat xizmatchisining jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, yuqori mas’uliyat hamda fidoyilikni talab etadigan nufuzli kasb egasi sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda davlat xizmatida meritokratiya, shaffof tanlov tizimi va natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi malakali kadrlarni jalb qilish hamda xizmatning ijobiy imijini yanada mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmati tizimini yangilash jarayoni izchil olib borilmoqda. So‘nggi yillarda davlat fuqarolik xizmati tizimining huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslarini belgilash, sohaga doir qonun hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarning olib borilishi natijasida quyidagilarga erishildi (1-jadval):

1-jadval. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati sohasida amalga oshirilgan asosiy islohotlar va natijalar

№	Yo‘nalish	Asosiy g‘oya va natija	Manba (asos)
1	Davlat xizmati falsafasi	«Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak» tamoyili davlat boshqaruvining ustuvor mezoni sifatida joriy etildi.	Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 19-oktabrda bo‘lib o‘tgan VIII syezddagi ma’ruzasi.
2	Hududiy boshqaruv	Mahallabay ishlash tizimi va «mahalla yettiligi» instituti joriy qilinib, aholi muammolarini joylarda hal etishning yangi mexanizmi shakllantirildi.	15.03.2024-yildagi 137-son Qaror[1] – «Mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta’minlash hamda «Mahalla yettiligi» faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
3	Institutsional islohot	Davlat fuqarolik xizmati sohasida vakolatli organ – Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (ARGOS) tashkil etildi.	03.10.2019-yildagi PQ-4472-son Qaror[2] – “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4	Huquqiy baza	«Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi.	08.08.2022-yildagi O‘RQ-788-son[3] Qonun – “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”.
5	Tanlov va raqamlashtirish	Davlat xizmatiga ochiq tanlov tizimi va vacancy.argos.uz platformasi ishga tushirildi.	https://vacancy.argos.uz
6	HR raqamlashtirish	hrm.argos.uz orqali yagona kadrlar ma’lumotlar bazasi shakllantirildi.	https://hrm.argos.uz
7	Baholash tizimi	Davlat xizmatchilarini testlash (test.argos.uz) va psixologik baholash joriy etildi.	
8	Samaradorlik	Rahbarlar faoliyati KPI asosida baholanib, samaradorlik.uz ishga tushirildi.	https://samaradorlik.uz
9	Korrupsiyaga qarshi kurash	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.	29.06.2020-yildagi PQ-4761-son Qarori[4] – “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiya (lot. competere – layoqatli, munosib bo‘lmoq) – 1) muayyan organ yoki mansabda shaxsning rasmiy huquqlariga berilgan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) shaxsning biror-bir sohadagi xabardorligi, shu sohani yaxshi darajada egallaganligi [9] kabi ma’nolarni anglatadi. «Kompetensiya» termini ilk bor 1959-yilda g‘arb olimi Uayt (White) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, keyinchalik 1960–1980-yillar davomida G‘arb mamlakatlarida, ayniqsa davlat boshqaruvi sohasida keng tatbiq etilgan. Mazkur yondashuv davlat xizmatchilarining kasbiy salohiyatini baholash va rivojlantirishda muhim metodologik asosga aylangan.

Kompetentlik o‘z ishini mukammal bilish, bajarilayotgan faoliyatning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, belgilangan maqsadlarga erishishning samarali usul va vositalarini to‘g‘ri tanlay olish, shuningdek boshqaruv ilmi sohasida yetarli nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishni nazarda tutadi. U bilim, ko‘nikma va amaliy tajribaning uyg‘un majmuasi sifatida namoyon bo‘lib, shaxsning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishini ta’minlaydi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.03.2024 yildagi 137-son https://lex.uz/uz/docs/-6840781
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.10.2019 yildagi PQ-4472-son https://lex.uz/docs/-4552053
3 O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 08.08.2022 yildagi O‘RQ-788-son http://lex.uz/uz/docs/-6145972
4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.06.2020 yildagi PQ-4761-son https://lex.uz/uz/docs/-4875782

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan talablardan kelib chiqqan holda, shuningdek, Richard Boyasis, R.W. White, Jean-Pierre Baudouin, L. Brown, L.M. Spencer kabi xorij olimlari; R.R. Ivanov, A.Yu. Panasyuk, A.A. Maksimov, A.V. Obolonskiy, A.G. Gadjiev kabi MDH olimlari hamda A.E. Yuldashev, Q.Q. Quronboev, A.T. Jalilov, Z.Sh. Alimardonov, M.X. Gulyamova, M.U. Atamuratov, A.X. Xolov, D.A. Sayidahmedov kabi o‘zbek olimlari ishlari o‘rganilib, ularga asoslangan va tadqiqotchining xulosalaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari imijini oshirishga xizmat qiluvchi muhim kompetensiyalar tizimi shakllantirildi. Mazkur tizim davlat fuqarolik xizmatchisining ijtimoiy qabul qilinishi, ishonch darajasi va davlat hokimiyatining umumiy imijini mustahkamlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kasbiy kompetentlik davlat fuqarolik xizmatchisining ijobiy imijini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Xizmat vazifalarini yuqori saviyada bajarish, normativ-huquqiy hujjatlarni mukammal bilish va davlat siyosatini samarali amalga oshirish qobiliyati xizmatchining professional qiyofasini belgilab, jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

Strategik fikrlash kompetensiyasi davlat xizmatchisining islohotlarga uzoq muddatli nuqtai nazardan yondashishini, davlat va jamiyat manfaatlarini uyg‘un holda hisobga olgan qarorlar qabul qilishini ta’minlaydi. Bu esa davlat xizmatchisining mas’ul, oqilona va kelajakni ko‘ra biluvchi subyekt sifatida qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Davlat xizmatchisi imijida qaror qabul qilish va javobgarlik kompetensiyasi alohida o‘rin tutadi. Asoslangan va adolatli qarorlar qabul qilish, ularning oqibatlari uchun javobgarlikni zimmasiga olish xizmatchining ishonchli va mas’uliyatli shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantiradi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya davlat xizmatchilarining ijobiy jamoatchilik imijini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi, fuqarolar va ommaviy axborot vositalari bilan ochiq va madaniyatli muloqot olib borish davlat xizmatchisining ochiqlik va shaffoflikka intiluvchi qiyofasini shakllantiradi.

Axloqiy va huquqiy madaniyat davlat xizmatchisi imijining ma’naviy asosini tashkil etadi. Qonun ustuvorligiga qat’iy amal qilish, xizmat odobi qoidalariga rioya etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat davlat xizmatchisini jamoatchilik ko‘z o‘ngida namunaviy shaxs sifatida namoyon etadi.

Bugungi kunda raqamli kompetensiya davlat xizmatchisining zamonaviy imijini belgilaydigan muhim omillardan biriga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlarining davlat boshqaruvi tizimiga keng joriy etilishi davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatiga nisbatan yangi va yuqori talablarni shakllantirmoqda. Zamonaviy sharoitda davlat xizmatchisining ijobiy imiji nafaqat uning kasbiy bilimi, malakasi va axloqiy fazilatlari, balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olish qobiliyati bilan ham baholanmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimlari, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlari hamda onlayn kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish davlat xizmatchisining innovatsion fikrlaydigan, tezkor va zamon talablariga mos mutaxassis sifatidagi qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini zamonaviy talablar asosida baholash, ularning professional salohiyati va kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan raqamli mexanizmlarni joriy etish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu borada davlat fuqarolik xizmatchilari kompetensiyalarini baholash bo‘yicha platforma ishlab chiqish va joriy etish xizmatchilarning bilim, ko‘nikma va kasbiy sifatlarini tizimli tahlil qilish, kadrlar salohiyatini xolis baholash hamda ularning professional imijini mustahkamlash imkonini beradi. Bunday platformalar davlat xizmati faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va natijadorligini ta’minlash, shuningdek, aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayon samaradorligini ta’minlashda mavjud tizimlar bilan integratsiya ishlarini amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli platformalarning kadrlar boshqaruvi, elektron hukumat, baholash va monitoring tizimlari bilan o‘zaro uyg‘un holda faoliyat yuritishi davlat xizmatini boshqarishning yagona raqamli ekotizimini shakllantirish imkonini yaratadi. Bu esa davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini kompleks baholash, ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy ijobiy imijini mustahkamlashning muhim institutsional asoslaridan biri hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari. Zamonaviy sharoitda davlat fuqarolik xizmatchilarining jamiyat bilan muloqoti ko‘p hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va jamoatchilik bilan aloqalar kanallari orqali amalga oshiriladi. Shu bois davlat xizmatchisi faoliyati nafaqat amaliy natijalari, balki jamoatchilik ongida shakllangan imiji orqali ham baholanadi. Davlat xizmatchisining obrazi uning ommaviy chiqishlari, OAVdagi tasviri, raqamli makondagi faolligi hamda aholi bilan axborot almashinuvi jarayonida shakllanadi.

Ommaviy axborot vositalari imijni shakllantirishda eng ta’sirchan vositalardan biri hisoblanadi. Jamiyat, odatda, OAV orqali tarqatilayotgan axborotga yuqori darajada ishonch bildiradi. Biroq axborot oqimining keskin ortishi sharoitida tarqatilayotgan ma’lumotlarning haqqoniyligi va xolisligini baholash murakkablashmoqda.

B.S. Alimovning ta’kidlashicha, xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston imijiga oid materiallar tahlili mazkur yo‘nalishda tizimli ishlash zarurligini ko‘rsatadi [10]. Muallif ayrim xorijiy media manbalarida mamlakat

imiji yetarli darajada ijobiy talqin qilinmasligini qayd etib, xalqaro media makonida O‘zbekiston haqidagi ijobiy axborotlar ulushini oshirish muhimligini asoslaydi.

Fransuz olimi P. Shampan esa ommaviy axborot vositalarini “katta ramziy hokimiyat” sifatida baholab, ularning jamoatchilik ongida muayyan voqelik va ijtimoiy qarashlarni shakllantirish imkoniyatiga ega ekanini ta’kidlaydi [11]. Shu bois, davlat fuqarolik xizmatchilari imijini oshirishning zamonaviy tendensiyalari avvalo vositachilik orqali muloqot mexanizmlarini samarali tashkil etish, strategik kommunikatsiyani rivojlantirish hamda jamoatchilik ongida ishonchli, mas’uliyatli va kasbiy davlat xizmatchisi obrazini qaror toptirishga qaratilgan tizimli yondashuvlarni talab etadi.

Tashkilot madaniyati. Davlat fuqarolik xizmatchisining ijobiy imijini shakllantirishda tashkiliy madaniyat muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda u davlat xizmati samaradorligini ta’minlash, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash hamda davlat xizmatchilarining kasbiy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Garchi davlat tashkilotlarining tashkiliy madaniyati muayyan normativ-huquqiy xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, uning qadriyatlar tizimi va boshqaruv tamoyillari tijorat tashkilotlari madaniyatidan keskin farq qilmaydi. Har ikki holatda ham tashkiliy madaniyat xodimlar motivatsiyasi, samarali faoliyat va ijobiy imijni ta’minlovchi muhim mexanizm sanaladi.

Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatchilari imijini oshirishga qaratilgan tendensiyalar tashkiliy madaniyatni nafaqat ichki boshqaruv vositasi, balki jamoatchilik bilan munosabatlarning strategik resursi sifatida ham baholashni taqozo etmoqda. Tashkiliy madaniyatning asosiy vazifasi tashkilotni boshqalardan ajratib turuvchi tashkiliy identifikatsiyani shakllantirishdan iborat [12]. Bu jarayon tashkilotning faoliyat uslubi, xodimlarning kasbiy va axloqiy xulq-atvori hamda jamoatchilik ongida shakllangan imiji orqali namoyon bo‘ladi.

Tashkilotni identifikatsiya qilish jarayoni bevosita uning tashkiliy madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, u tashkilot a’zolarining umumiy maqsadlarga erishish yo‘lidagi o‘zaro munosabatlari va hamkorligi tizimini ifodalaydi. Shu bilan birga, u tashkilotning firmaviy uslubini, jumladan, ramzlari, belgilarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu ramzlar oson va tez yodda qolishi hamda jamoatchilik ongida aynan mazkur tashkilot faoliyati bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Bundan tashqari, tashkiliy madaniyat jamoatchilik bilan aloqalarni tizimli tashkil etish orqali jamoatchilik ongida ijobiy va barqaror imijni shakllantirishga xizmat qiladi. Ana shu jihatlari bilan tashkiliy madaniyat davlat fuqarolik xizmatchilari imijini oshirishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Sun’iy intellekt (AI) zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim drayverlaridan biri sifatida davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari tizimida keng joriy etilmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan yechimlar ilgari davlat xizmatchisining to‘liq shaxsiy ishtirokini talab etgan bir qator vazifalarni avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Jumladan, hujjat aylanmasini raqamlashtirish, murojaat va shikoyatlarni tizimli tahlil qilish hamda davlat xizmatlari to‘g‘risida fuqarolarga real vaqt rejimida aniq va ishonchli axborot taqdim etish orqali davlat xizmatchisining ish yuki kamayib, uning kasbiy samaradorligi oshmoqda. Bu esa jamiyat ongida davlat xizmatchisining mas’ul, ochiq va fuqaroga yo‘naltirilgan obrazini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini kompleks baholash va inson resurslarini samarali boshqarish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Xodimlarning hissiy holati va kayfiyatini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida muntazam baholab borish amaliyotini joriy etish davlat organlarida inson resurslarini boshqarishning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Mazkur yondashuv kasbiy stress holatlarini barvaqt aniqlash, sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, xodimlarning ishchanligini qo‘llab-quvvatlash hamda xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Olimlarning e’tirof etishicha, katta hajmdagi ma’lumotlarni yuqori tezlikda tahlil qilish imkoniyati orqali sun’iy intellekt hukumatlarga ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, jamoat ehtiyojlarini chuqurroq anglash hamda dalil va ma’lumotlarga asoslangan davlat siyosatini shakllantirishda faol va ilg‘or yondashuvlarni qo‘llash imkonini bermoqda [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda davlat fuqarolik xizmatchilari imijining bugungi holatini baholash va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish hamda ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida davlat fuqarolik xizmati tizimida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, davlat xizmatchilari sonining o‘zgarishi, mehnatga haq to‘lash tizimi, hududiy tafovutlar, tanlov mexanizmlarining samaradorligi hamda yoshlarning mehnat qadriyatlari bilan bog‘liq omillar tahlil qilindi. Shuningdek, davlat

fuqarolik xizmati jozibadorligi va xizmatchilar imijiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hamda tashkiliy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik qiyosiy yondashuv asosida o‘rganildi.

Olingan natijalar umumlashtirilib, davlat fuqarolik xizmatchilarining ijobiy imijini shakllantirish va davlat xizmati jozibadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davlat fuqarolik xizmati tizimini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda tizimda boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, funksiyalarni qayta taqsimlash hamda inson resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat fuqarolik xizmati tizimidagi yangilanishlar turli idoralar, lavozimlar, kasbiy yo‘nalishlar va hududlar kesimida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu holat tizimni yanada takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xorijiy tajriba ham davlat xizmatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, uning jozibadorligini oshirish va malakali kadrlarni jalb etish masalalari ko‘plab mamlakatlar kun tartibidagi muhim vazifalardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Xususan, Fransiya tajribasi davlat xizmatining raqobatbardoshligini ta’minlash, tanlov mexanizmlarini takomillashtirish hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish orqali tizim samaradorligini yanada oshirish mumkinligini tasdiqlaydi [1]. Fransiya Ma’muriyat va davlat xizmati bosh boshqarmasi (DGAFP) ma’lumotlariga ko‘ra, davlat xizmatidagi strukturaviy o‘zgarishlar, ayniqsa lavozimlar sonining kamayishi, nomzodlar oqimining pasayishiga olib kelgan. Jumladan, 1985–1990-yillarda bir lavozimga o‘rtacha 14 nafar nomzod to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1990–2000-yillarda bu ko‘rsatkich 9 nafargacha pasaygan va mazkur tendensiya 2000–2020-yillarda ham saqlanib qolgan. Ayrim yo‘nalishlarda esa nomzodlar soni deyarli ikki barobarga kamaygan. Bu holat davlat xizmatida ish o‘rinlarining cheklanishi va lavozimlar barqarorligining pasayishi natijasida «davlat xizmatiga kirish jozibadorligining pasayishi» kabi tizimli muammo shakllanganini ko‘rsatadi.

O‘xshash jarayonlar O‘zbekiston davlat fuqarolik xizmati tizimida ham kuzatilmoqda. Xususan, sohada mavjud tashkiliy va institutsional kamchiliklar fonida davlat fuqarolik xizmatchilari soni ham qisqarish yo‘lidan bordi. Agar 2022-yilda ularning soni 118 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa [2], 2023-yilda ma’muriy islohotlar doirasida vazirlik va idoralarda 17 447 ta shtat birliklari qisqartirildi [3]. Natijada, hozirgi kunda amaldagi davlat xizmatchilari soni 95 ming nafarga yaqinni tashkil etmoqda (1-rasm).



1-rasm. Respublika miqyosida Davlat fuqarolik xizmatchilarining soni bilan bog‘liq tahlil.[5]

2023-yilda davlat fuqarolik xizmatchilari soni 2022-yilga nisbatan 80,5 foizni tashkil etgan bo‘lib, bir yil mobaynida qariyb 19,5 foizlik qisqarish kuzatilgan. Bu holat davlat fuqarolik xizmati tizimida kadrlar barqarorligiga ta’sir etuvchi jiddiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, ish qidirish jarayonida axborot shaffofligini ta’minlash masalasi davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish va ochiqlikni ta’minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan,

5 Manba: Prezident.uz va PF-14-son Farmon ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan. https://lex.uz/docs/-6369997?ONDATE=21.05.2026

vacancy.gov.uz va ish.mehnat.uz platformalarining joriy etilishi fuqarolarga hududlar va sohalar kesimida bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan tezkor foydalanish hamda ish qidirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Mazkur tizimlarning amaliy samaradorligini yanada oshirish maqsadida vakansiyalar haqidagi ma’lumotlarning dolzarbligini muntazam yangilab borish, ish beruvchilar va nomzodlar o‘rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytirish hamda elektron xizmatlar sifatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar mavjud. Bu yo‘nalishdagi ishlarning izchil davom ettirilishi davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish jarayonlarining yanada shaffof, qulay va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Mazkur holat, ayniqsa, sog‘liqni saqlash sohasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hamshiralik kasbiga bo‘lgan talab yuqori ekaniga qaramay, ishga joylashish jarayonida ko‘plab to‘siqlar mavjud [4]. Bir tomondan, har yili tibbiyot texnikumlarini minglab bitiruvchilar tamomlasa, ikkinchi tomondan, ish beruvchilar tomonidan ularning amaliy ko‘nikmalari va kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligi sababli ishga qabul qilish rad etilmoqda.

Uchinchidan, geografik omillar. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati ijobiy imiji hududlar kesimida bir xil emas. Mamlakat ichida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilmaning holati, aholi zichligi va mehnat bozorining faolligiga qarab davlat xizmatiga qiziqish sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, poytaxt va yirik shaharlar bilan chekka, qishloq yoki tog‘li hududlar o‘rtasida davlat xizmatini tanlash imkoniyatlari va rag‘batlantirish darajasida katta tafovut mavjud [5].


Amaldagi holat shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahri hamda iqtisodiy faol hududlarda davlat fuqarolik xizmati lavozimlari nisbatan jozibador hisoblanadi. Bu, avvalo, yuqori maosh koeffitsiyentlari, xizmat infratuzilmasining rivojlanganligi, kasbiy o‘sish imkoniyatlarining kengligi va mehnat bozoridagi umumiy faollik bilan izohlanadi.

Geografik omillar bu yerda davlat xizmatining o‘ziga xos institutsional xususiyatlaridan ko‘ra, hayot sifati bilan bog‘liq omillar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Davlat xizmatiga kirishni rejalashtirayotgan shaxslar ish joyini tanlashda nafaqat lavozim maqomi va xizmat barqarorligini, balki hududdagi yashash sharoitlari, uy-joy masalasi, transport imkoniyatlari, ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ham hisobga oladilar. Ayniqsa, davlat xizmatiga birinchi marta kirayotgan yosh mutaxassislar uchun ish joyining joylashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ish haqi masalasi. Ish haqi masalasi O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati jozibadorligining pasayishiga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mavjud amaliyot davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatiga haq to‘lash tizimini xususiy sektordagi o‘xshash lavozimlar bilan raqobatbardosh mezonlar asosida yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa yuqori malakali va mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni davlat xizmatiga jalb etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatida mehnatga haq to‘lash tizimi asosan xizmat staji, lavozim darajasi va tarif razryadlariga bog‘langan bo‘lib, ish haqining dinamikasi ko‘pincha avtomatik tarzda, bosqichma-bosqich amalga oshadi. Mazkur holat qisqa muddatda yuqori daromadni maqsad qilgan yosh mutaxassislar uchun davlat xizmatini nisbatan kam jozibador qiladi. Natijada tahlillar ko‘proq amaldagi xizmatchilarning o‘rtacha ish haqi o‘sishiga tayanadi, bu esa xususiy sektordagi tezkor va individual rag‘batlantirish mexanizmlari bilan qiyoslash imkoniyatini cheklaydi.

Ish haqi masalasining ta’siri uy-joy bozoridagi vaziyat bilan yanada kuchayadi. Ayniqsa, Toshkent shahri va yirik shaharlarda uy-joy narxlarining tez o‘sishi davlat xizmatchilari daromadlarining real qiymatini pasaytiradi. Bu holat davlat fuqarolik xizmatchilari uchun ijtimoiy barqarorlikka erishishni qiyinlashtirib, xizmat jozibadorligini pasaytiradi (2-rasm).



2-rasm. Toshkent shahri va Namangan viloyati tumanlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichlari (2017–2024-yillar) [6].

Barcha tahlil qilingan yillarda Toshkent shahridagi o‘rtacha oylik ish haqi Namangan shahriga nisbatan barqaror ravishda yuqori bo‘lgani kuzatiladi. Ikki hudud o‘rtasidagi farq yillar davomida tobora kengayib borgan: agar 2017-yilda ish haqi tafovuti taxminan 1,5 baravarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli 1,9 baravarga yetgan.

Mazkur dinamika poytaxt va hududlar o‘rtasida iqtisodiy faoliyatning markazlashuvi, mehnat bozorining jozibadorligi hamda davlat va xususiy sektorlarda ish haqi differensiatsiyasi saqlanib qolayotganini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, yuqori malakali kadrlar uchun Toshkent shahrida taklif etilayotgan iqtisodiy va kasbiy imkoniyatlar hududlarga nisbatan ustun ekani ushbu tafovutni yanada kuchaytirmoqda. Shu ma’noda, aniqlangan tendensiya davlat fuqarolik xizmati tizimida kadrlarni hududlarga jalb qilish va ularni ushlab qolish masalasida qo‘shimcha rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Muammo yanada chuqurlashishi mumkin, chunki yaqin yillarda davlat fuqarolik xizmatida katta avlod vakillarining pensiya yoshiga yetishi kuzatilmoqda. Mavjud ish haqi darajasi va moddiy rag‘batlantirish mexanizmlari saqlanib qolgan holda, ushbu kadrlarning o‘rnini bosadigan yangi mutaxassislarni jalb qilish qiyin kechishi ehtimoli yuqori. Ayniqsa, avvalroq uy-joy masalasini hal qilib olgan xizmatchilar o‘rnini, uy-joy narxlari yuqori bo‘lgan sharoitda ish boshlayotgan yosh kadrlar bilan to‘ldirish murakkab vazifaga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati jozibadorligini oshirish uchun ish haqi siyosatiga qayta nazar tashlash, uni mehnat bozoridagi real shart-sharoitlar bilan uyg‘unlashtirish, hududiy va kasbiy farqlarni inobatga olgan holda rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib aytishimiz mumkinki, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish haqini lavozimlarni baholash asosida greydlar, ballarga asosan tasniflash hamda malakasi, tajribasi, faoliyati samaradorligiga ko‘ra oshib borishini nazarda tutuvchi mehnatga haq to‘lashning zamonaviy tizimini joriy etish Davlat fuqarolik xizmati jozibadorligini oshirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish tizimini yanada takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish jarayonlarida ochiqlik, shaffoflik va meritokratiya tamoyillarini qaror toptirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy mehnat bozori talablari va xalqaro tajribani inobatga olgan holda tanlov mexanizmlarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Xususan, tanlov shakllari, imtihon mazmuni va baholash usullarini takomillashtirish orqali nomzodlarning kasbiy kompetensiyalari, amaliy ko‘nikmalari va salohiyatini yanada xolis hamda kompleks baholash imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa davlat fuqarolik xizmatiga malakali, tashabbuskor va zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislarni jalb etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [7].

Mavjud amaliyot ayrim lavozimlar bo‘yicha tanlov jarayonlarini nomzodlarning amaliy ko‘nikmalari, muammoni hal qilish qobiliyati, raqamli savodxonligi hamda boshqaruv kompetensiyalarini kompleks baholashga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa muhandislik, axborot texnologiyalari, raqamli transformatsiya va boshqaruv sohalarida zamonaviy talablarga mos test va keys-tahlil elementlarini kengroq joriy etish orqali tanlov jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ayrim lavozimlar uchun jismoniy yoki umumiy testlar qo‘llanilib, ular kasbiy faoliyatning real mazmuni bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan holatlar ham uchraydi. Bu esa tanlov natijalarining haqqoniyligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, malakali nomzodlarning tizimga kirishini cheklashi mumkin.

Tanlovlarni o‘tkazish davriyligi aksar hollarda davlat organlarining real ehtiyojlariga mos kelmaydi. Tanlovlar ma’lum vaqt oralig‘ida o‘tkazilishi sababli, davlat organlarida kadrlarga ehtiyoj yuzaga kelgan paytda zarur mutaxassislarni tezkor jalb etish imkoniyati cheklanadi. Bu holat nomzodlar uchun ham qo‘shimcha to‘siq bo‘lib, ular tanlov natijalarini uzoq kutishga majbur bo‘ladilar yoki xususiy sektorga yo‘nalish olishadi.

Sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, “Yoshlarning aksariyati gedonistik qadriyatlarga moyil ekanini bildirib, hayotdan to‘liq bahramand bo‘lishni o‘zlari uchun muhim maqsad deb hisoblamoqda. Ushbu qarash 2002-yildan buyon izchil ravishda kuchayib borgan bo‘lib, 2015-yildan beri barqaror tus olgan. Shu bilan birga, ijodiy va innovatsion qadriyatlar ham yoshlar ongida tobora muhim o‘rin egallamoqda. Ko‘pchilik yoshlar uchun hayotdan to‘liq bahramand bo‘lish tushunchasi mehnat yoki dam olish faoliyatini qat’iy cheklashdan voz kechish, shaxsiy erkinlik va faol turmush tarzini saqlab qolish bilan bog‘liqdir” [8]. Yangi avlod ish joyini tanlashda faqat barqarorlikni emas, balki shaxsiy erkinlik, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati, kasbiy o‘sish sur’ati, mehnat faoliyatining mazmunan boyligi va ijtimoiy ahamiyatini ham ustuvor mezon sifatida baholamoqda.

Ushbu tendensiya davlat fuqarolik xizmati oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Xususan, lavozim vazifalarida raqamli transformatsiya, innovatsion yondashuvlar va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy yechimlarning mavjud bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, tashkilot ichidagi jarayonlarda moslashuvchanlikni ta’minlash, natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda ortiqcha byurokratik to‘siqlarni qisqartirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Davlat xizmatida xodimning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi aniq va ochiq kasbiy traektoriyalarning mavjudligi ham muhim omil hisoblanadi. Bularga malaka oshirish imkoniyatlari, karera bo‘yicha o‘sish, ichki rotatsiya, loyihaviy faoliyatda ishtirok etish kabi mexanizmlar kiradi. Shuningdek, ish joyini tanlashda mehnat hayoti sifati bilan bog‘liq omillar ham tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Kasbiy va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanat, masofaviy yoki gibrid ish formatlarining mavjudligi, raqamli vositalardan samarali va maqsadli foydalanish madaniyati yosh mutaxassislar uchun muhim qaror qabul qilish mezonlaridan biriga aylanmoqda. Demak, davlat xizmati jozibadorligi endilikda faqat ish haqi yoki ijtimoiy kafolatlar bilan emas, balki zamonaviy boshqaruv muhiti va mehnat faoliyatining mazmunliligi, ya’ni “ishning ma’nosi” bilan ham belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat fuqarolik xizmati brendini, davlat fuqarolik xizmatchisining ijobiy imijini shakllantirish, nufuzini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borish ham davlat xizmati jozibadorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat xizmati jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar kompleks va ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanini qayd etish mumkin. Xususan, ish o‘rinlari dinamikasi, mehnatga haq to‘lash tizimining raqobatbardoshligi, hududiy nomutanosibliklar, axborot shaffofligi, mehnat yuklamasi hamda davlat xizmatchilari faoliyatiga nisbatan jamoatchilik munosabati mazkur jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa davlat fuqarolik xizmati imijini oshirishda institutsional va ijtimoiy-psixologik omillarni kompleks tahlil qilish zarurligini anglatadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining imijini oshirish davlat hokimiyatining umumiy imijini, shuningdek mamlakat va hudud imijini shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu jarayonlarni bir-biridan uzilgan, alohida holda ko‘rib chiqish xato bo‘lib, jamoatchilik ongida tarixan shakllangan ziddiyatlarni yanada kuchaytiradi. Davlat hokimiyati – bu davlat xizmatchilarining alohida mehnati va mas’uliyati ekanligini anglash va tushunish davlat xizmatchilari imijining jadal o‘sishiga, bu esa o‘z navbatida aholining fuqarolik faolligi oshishiga xizmat qiladi.

Davlat xizmatchisining ijobiy imijini oshirish bir qator o‘zaro bog‘liq va tizimli omillarga tayanadi. Ularning asosiylariga to‘xtalib o‘tamiz:

Kompetensiya. Davlat xizmati tizimini takomillashtirish masalasini kasbiy faoliyatda kompetensiyaviy yondashuvdan ajralgan holda ko‘rib chiqib bo‘lmaydi. Zero, davlat apparati faoliyatining samaradorligi, avvalo, davlat siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonlarida bevosita ishtirok etuvchi davlat fuqarolik xizmatchilarining professionalizmi hamda kompetentlik darajasi bilan belgilanadi.

Tadqiqot materiallariga tayanib xulosa qilish mumkinki, davlat fuqarolik xizmatchilari imijini oshirish ko‘p omilli va o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lib, unda kompetentlik, ommaviy axborot vositalari bilan kommunikatsiya, tashkiliy madaniyat, axloqiy me’yorlar va raqamli texnologiyalar (jumladan, sun’iy intellekt) hal qiluvchi o‘rin tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat fuqarolik xizmatchilari imijini shakllantirish va mustahkamlash davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat xizmati tizimini takomillashtirish, uning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash, raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda davlat xizmatlarini aholiga yaqinlashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining tashkil etilishi, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, ochiq tanlov va raqamli HRM tizimlarining joriy qilinishi davlat xizmati tizimining ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Mavjud tahlillar davlat fuqarolik xizmati imijini shakllantirish va mustahkamlash jarayonida bir qator institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni kompleks hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan, ish o‘rinlari dinamikasi, mehnatga haq to‘lash tizimining raqobatbardoshligi, hududiy tafovutlar, tanlov mexanizmlarining samaradorligi, axborot shaffofligi hamda yoshlarning mehnat qadriyatlaridagi o‘zgarishlar davlat xizmati jozibadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa malakali kadrlarni davlat xizmatiga jalb qilish va ularni saqlab qolish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot davomida davlat fuqarolik xizmatchisi imijini shakllantirishda kasbiy kompetentlik hal qiluvchi omil ekani asoslandi. Xususan, strategik fikrlash, qaror qabul qilish, kommunikativ qobiliyat, axloqiy va huquqiy madaniyat, raqamli kompetensiyalar hamda jamoatchilik bilan samarali muloqot davlat xizmatchisining ijobiy qiyofasini belgilaydi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya platformalari davlat xizmati imijini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlat organlarining ochiqligi, tezkor axborot siyosati va aholi bilan samarali kommunikatsiyasi jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy etish davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini oshirish, inson resurslarini boshqarishni takomillashtirish va xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim vositasi sifatida baholanmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan

yechimlar orqali davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, murojaatlarni tezkor tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash davlat xizmatchisining zamonaviy, innovatsion va fuqaroga yo‘naltirilgan obrazini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, davlat fuqarolik xizmatchilari imijini oshirish faqat tashqi targ‘ibot yoki axborot siyosati bilan cheklanmaydi. U kadrlar siyosati, mehnatga haq to‘lash tizimi, kompetensiyalarni rivojlantirish, tashkiliy madaniyat, strategik kommunikatsiya va raqamli boshqaruv mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida ta’minlanadi. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatida professionalizm, ochiqlik, halollik va innovatsion boshqaruv tamoyillarini mustahkamlash Yangi O‘zbekistonda aholining davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini oshirish va davlat fuqarolik xizmati ijobiy imijini barqaror shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Direction générale de l’administration et de la fonction publique (DGAFP). Rapport annuel sur l’état de la fonction publique – édition 2020. Paris: Ministère de la Transformation et de la Fonction publiques, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. “Ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratish vazifasi qo‘yildi”. 2022-yil 4-avgust. https://president.uz/oz/lists/view/5398
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6369997
4. Robinson S., Yin J. Health Systems in Action (HSIA) Insights: Uzbekistan. Copenhagen: World Health Organization, Regional Office for Europe, 2024. 28 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami. https://stat.uz/uz/nashrlar/3681-o‘zbekiston-hududlarining-yillik-statistik-to-plami
6. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami. URL: https://stat.uz/uz/nashrlar/3681-o-zbekiston-hududlarining-yillik-statistik-to-plami
7. Yuldashev A.E. Davlat fuqarolik xizmatida kompetensiyaga asoslangan kadrlar siyosati: muammo va yechimlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2022. № 6. B. 78–87.
8. Zamonaviy yoshlarning qadriyat yo‘nalishlari: xalqaro va Rossiya tadqiqotlari natijalarining tahliliy sharhi. Moskva: “Sirkon” sotsiologik ustaxonasi, 2020. B. 8.
9. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. B. 396.
10. Alimov B.S. Mamlakat imiji: dadillik va izchillik zamoni // “Hurriyat” gazetasi. 2018-yil 19-sentabr.
11. Shampan P. Ikki tomonlama bog‘liqlik: siyosat, iqtisodiyot va jurnalistika maydonlari o‘rtasidagi munosabatlar haqida ayrim mulohazalar // Socio-Logos’96. Moskva, 1996. B. 209.
12. Solomanidina T.O. Kompaniyaning tashkiliy madaniyati. 2-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan. Moskva: INFRA-M, 2007. 624 b.
13. Kulal A., Rahiman H.U., Suvarna H., Abhishek N., Dinesh S. Enhancing public service delivery efficiency: Exploring the impact of AI // Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. 2024. Vol. 10. No. 3. Article 100329.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.